
MAJBURIY IJRO BYUROSINI FAOLIYATIDAN: "SPARK" NEGA XATLANGAN EDI?



Fuqarolik ishlari bo'yicha Marg'ilon tumanlararo sudining 2022 yil 21-fevral kungi qaroriga asosan Qo'shtepa tumani, Quvurboshi MFY, Shijoatkor ko'chasida yashovchi S.K.dan fuqaro A.I foydasiga 101.488.180 so'm qarzdorlik undirish belgilangan edi.

Mazkur ijro xujjati yuzasidan Majburiy ijro byurosining Qo'shtepa tumani bo'limida joriy yil 26 mart kuni ijro ishi qo'zg'atilib, qarzdorga tegishli "SPARK" rusumli avtotransport vositasi xatlangan.

Olib borilgan majburiy ijro harakatlari davomida avtotransport vositasi sotilib ketishining oldini olish maqsadida 16-aprel kuni qarzdor tomonidan 101.488.180 so'm to'liq to'landi va undiruvchiga tilxat asosida topshirilib ijro xujjati amalda to'liq tamomlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-04-28 10:53:45